

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor

I. Bekpulatov
28 10 2025-yil



08.00.17 - TURIZM VA MEHMONXONA FAOLIYATI IXTISOSLIGI
BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI

Tuzuvchilar:

i.f.d.,(DSc), dots, Sh.Muxitdinov
i.f.n., dots A.Abdiyev
i.f.f.d., dots, J.Qosimov
i.f.f.f. (PhD) J.Halimov
i.f.f.d. (PhD) N.Toshev
i.f.f.d. (PhD) M.Qurbonova.

Dastur Qarshi davlat universiteti kengashning 2025-yil 30 10 dagi
majlisida tasdiqlangan (Bayonnoma № 2)

Qarshi-2025-yil

08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni

DASTURI

KIRISH

Kirish imtihoni tadqiqotchilarning turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot hamda amaliy tahlil faoliyatini olib borish darajasini aniqlash, sohadagi iqtisodiy va boshqaruv muammolarni tahlil qilish, ularni hal etishning zamonaviy usullarini tanlash, umumiy va amaliy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish qobiliyatlarini baholash imkoniyatini beradi.

08.00.17 – *Turizm va mehmonxona faoliyati* ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqotga tayyorgarligini aniqlashning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha zamonaviy xizmatlar bozori, turizm iqtisodiyoti, mehmonxona boshqaruvi, marketing, raqamli texnologiyalar, barqaror turizm, mintaqaviy rivojlanish va xalqaro turizm tizimlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Turizm sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar davlat iqtisodiyotida xizmatlar sektorining raqobatbardoshligini oshirish, milliy turizm salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro miqyosda O'zbekiston brendini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur imtihon dasturi 08.00.17 – *Turizm va mehmonxona faoliyati* ixtisosligi pasportiga mos keladi.

Dastur quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- Turizm iqtisodiyoti va menejmentining umumiy asoslari;
- Mehmonxona xo'jaligi va servis faoliyati;
- Barqaror turizm, innovatsiya va raqamli transformatsiya;
- Mutaxassislik fanlarini o'qitish va tahlil qilish ko'nikmalari.

KIRISH IMTIHONI MUNDARIJASI VA MAZMUNI

I. Turizmning nazariy va iqtisodiy asoslari (1–10-adabiyotlar asosida)

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari.
2. Turizmning iqtisodiy mazmuni, turlari va funksiyalari.

3. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va milliy iqtisodiyotdagi o'ri.
4. Turizm xizmatlari bozori va uning tarkibiy tuzilishi.
5. Turistik mahsulot va uning turlari.
6. Turizmda rejalashtirish va boshqaruv tizimlari.
7. Turizm infratuzilmasi va logistika tarmog'ining rivojlanishi.
8. Turizm investitsiya va marketing strategiyalari.
9. Xizmatlar sifatini boshqarish tizimlari (SERVQUAL, ISO, HACCP).
10. Barqaror turizm konsepsiyasi va ekologik muvozanat tamoyillari.

TURIZM MENEJMENTI, INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI

1. Turizmda menejment va boshqaruv tizimlarining mohiyati.
2. Turizm sohasida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar.
3. Turizm integratsiyalashuv jarayonlari.
4. Barqaror turizm innovatsion yondashuvlar.
5. Turizm xizmat sifati va innovatsion boshqaruv.
6. Turizm ilmiy-tadqiqot integratsiyasi.
7. Xalqaro turizm menejment va innovatsiyalar.
8. O'zbekistonda turizm innovatsion rivojlanish yo'nalishlari.

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Turizm to'g'risida"gi Qonun talablari asosida turizm sohasi ta'lim sifati Davlat ta'lim standartlari (DTS) bilan ta'minlanishini o'rganish.
2. Turizm va mehmonxona faoliyati yo'nalishining bakalavr bosqichi DTSlarini tahlil etish.
3. DTS asosida o'quv rejalarini shakllantirish va ularning turizm sohasidagi me'yoriy hujjatlar bilan muvofiqligini tahlil etish.
4. O'quv rejalar asosida yaratilgan mutaxassislik fan dasturlarini (turizm marketingi, mehmonxona boshqaruvi, barqaror turizm, servis va xizmat sifati, va boshqalar) o'rganish va tahlil etish.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Turizm faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq turizm sohasi kadrlarini tayyorlashda sifatni ta'minlash mexanizmlarini o'rganish.
6. DTS asosida o'quv rejalarini ishlab chiqish hamda o'quv rejalar asosida turizm fan dasturlarini yaratish.

7. Turizm sohasidagi fan dasturlari asosida darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, ularni xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish.
8. Ishchi fan dasturlarini ishlab chiqish va tahlil etish.
9. O'quv rejalar asosida yaratilgan turizm va mehmonxona boshqaruvi fan dasturlarini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash.
10. Turizm fanlari bo'yicha ishchi dasturlarni amaliyot bilan integratsiyalash.
11. O'quv rejalar asosida turizm fanlarini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
12. Turizm fanlari asosida darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish hamda ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish.
13. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlar, modulli o'qitish, loyihaviy yondashuv va keys-texnologiyalarni qo'llash.
14. Turizm fanlarini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish hamda qo'llash (masalan, virtual turlar, VR-mehmonxona simulyatorlari, elektron o'quv platformalari).
15. Didaktik o'yinli texnologiyalarning turizm fanlarini o'qitishdagi o'rni (rol o'yinlari, simulyatsiyalar, "mehmon rovida" mashg'ulotlar va boshqalar).
16. Ta'lim jarayonida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash.
17. Turizm fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida amaliy mashg'ulotlar va ma'ruza loyihalarini ishlab chiqish.
18. Turizm faoliyati jarayonida kuzatish, tahlil va baholash kompetensiyalarini shakllantirish.
19. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli savollar, keys-stadi topshiriqlar, amaliy holatlar (case study) asosida tahlil qilishni o'rganish.
20. O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, talabalarda kasbiy etika, mehmondo'stlik madaniyati, ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantirish.
21. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish shakllari (tahliliy hisobot, amaliy loyiha, turistik marshrut ishlab chiqish, virtual turlar) hamda ularni nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish.
22. Talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish (masalan, barqaror turizm, turizm iqtisodiyoti, hududiy brending, xizmat sifati monitoringi bo'yicha izlanishlar).
23. Talabalarning mustaqil ishlarini tahlil etish va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish.
24. Turizm fanlarini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.

25. Kasbiy muloqot (kommunikatsiya) mazmuni va tuzilishini o'rganish: mijozlar bilan ishlash, mehmonlarni qabul qilish etikasi, xorijiy turistlar bilan muloqot madaniyati.

26. Kasbiy muloqot omillari va xususiyatlarini tahlil etish (nutq madaniyati, reklama tili, xizmat ko'rsatish etiketi).

27. Kasbiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari - xalqaro va milliy mehmondo'stlik an'analarini uyg'unlashtirish.

28. Turizmda kasbiy muloqot mazmuni va tuzilishi bo'yicha mashg'ulotlar ishlab chiqish.

29. Ilmiy-tadqiqot ishlarini turizm amaliyotiga joriy etish (masalan, xizmat sifatini oshirish modeli, raqamli turizm platformalari, mintaqaviy turizm tahlili).

30. Bitiruv malakaviy ishlarini turizm va mehmonxona amaliyotiga joriy etish, natijalarini real sektor bilan bog'lash.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Talabalar javob yozishi lozim bo'lgan variantlarda 5 tadan savol bo'lib, har bir savolning javobiga maksimal 20 balldan ajratiladi. Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Yozgan javobiga qo'yiladigan talablar
17,0–20,0	Qo'yilgan savolga to'liq va aniq javob bergan. Javobda turizm va mehmonxona sohasi nazariyasi, amaliyoti hamda dolzarb masalalar chuqur tahlil qilingan. Ilmiy-nazariy manbalar asosida mustaqil fikr va tahlil yuritilgan. Javobda amaliy misollar, statistik ma'lumotlar va real holatlar (masalan, turizm infratuzilmasi, xizmat sifati, marketing amaliyoti) asoslab keltirilgan. Xulosa mantiqan asosli va ilmiy tahlilga tayangan. Fikrlar erkin, aniq va kasbiy terminologiyaga mos bayon etilgan.
13,9–16,9	Savolning mohiyatini to'g'ri tushungan, javobni izchil yoritgan. Turizm va mehmonxona faoliyatiga oid amaliy misollar keltirilgan, lekin ayrim tahliliy jihatlar yetarli darajada ochilmagan. Javob mantiqan to'g'ri, tasavvur mavjud. Xulosa soddaroq shaklda bayon etilgan.
10,7–13,8	Savol mohiyatini umuman olganda tushungan, ammo javob cheklangan yoki umumiy xarakterda bo'lgan. Ayrim nazariy

	tushunchalar to'liq ochilmagan. Misollar kam yoki yuzaki keltirilgan. Xulosa mavjud, biroq aniq tahlil va asos yetishmaydi.
0–10,6	Savolning asosiy mazmuni noto'g'ri yoki yuzaki yoritilgan. Javobda ilmiy-nazariy yoki amaliy asoslar keltirilmagan. Turizm va mehmonxona sohasiga doir asosiy tushunchalar to'g'ri qo'llanilmagan. Xulosa yo'q yoki noto'g'ri shakllantirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. O'quv qo'llanma, Toshkent. "Fan va texnologiyalar" 2018-yil. R.S.Amriddinova, N.E.Ibodullayev, M.T.Aliyeva.S.Abduxamidov 300 bet
2. I.S.Xotamov. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma T: "Innovatsiya-Ziyoi", 2022-yil, 160-bet.
3. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik, Toshkent. "Barkamol fayz media" 2018 yil. M.Boltaboyev, I.Tuxliyev, B.Safarov, S.Abduxamidov 400 bet
4. D.I.Abidova, B.B.Xashimov, Gastronomiya. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi", 2022 – 224b.
5. Xidirova.G.R., Raxmatullayeva F.M. Mintaqaviy turizm. O'quv qo'llanma, Buxoro.2020, "Durdona" nashriyoti, 2020-yil 169- bet.
6. Usmonov M.R. Turizm geografiyasi: O'quv qo'llanma, Samarqand, "SamDU", 2020. 281-bet
7. Z.O.Raximov. Turizmda tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. Samarqand "SamISI" 2019 232 b.
8. M.Amonboyev, S.Xalilov. Barqaror turizm rivojlanishi. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 96 b.
9. Sadikov T.B., Nurfayziyeva M.Z. Turizm va mehmondo'stlik. O'quv qo'llanma – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 132 b.